

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboyev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Toirov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabiyev</b>	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili .....	378
<b>P.A.Арслонзода</b>	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
<b>X.T.Мирзаев</b>	
Талқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



UO‘K: 398(09):902.5(584.4)

**MUHAMMAD VAFO KARMANAGIY – BUXORO AMIRLIGI TARIXCHILIK  
MAKTABINING ILK VAKILI****МУХАММАД ВАФА КАРМИНАГИ – ПЕРВЫЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ ШКОЛЫ ИСТОРИИ  
БУХАРСКОГО ЭМИРАТА****MUHAMMAD VAFO KARMANAGI - THE FIRST REPRESENTATIVE OF THE SCHOOL  
OF HISTORY OF BUKHARA EMIRATE****Mamadjanov A'zamjon Akmaljon o'g'li** 

Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk namoyandalardan biri bo'lgan Muhammad Vafo Karmanagiy hayoti va faoliyati muallifning "Tuhfat al-xoniy" asari asosida bayon etilgan. Buxoro amirligi tarixiga oid ilk manba sanalgan "Tuhfat al-xoniy" asari o'z muallifini tarixnavis, shoir va davlat arbobi sifatida tanishtirib, mang'it hukmdorlariga qilgan xizmatlari borasida so'z yuritadi.

**Аннотация**

В данной статье описывается жизнь и деятельность Мухаммада Вафы Карманаги, одного из первых представителей школы истории Бухарского эмирата, на основе произведения автора «Тухфат аль-хани». Произведение «Тухфат аль-хани», считающееся первым источником по истории Бухарского эмирата, представляет его автора как историка, поэта и государственного деятеля, рассказывает о услугах, которые он оказал мангитским правителям.

**Abstract**

This article describes the life and work of Muhammad Wafa Karmanagi, one of the first representatives of the school of history of the Bukhara Emirate, based on the work of the author "Tuhfat al-Khani". The work "Tuhfat al-Khani", considered the first source on the history of the Bukhara Emirate, presents its author as a historian, poet and statesman, and talks about the services he provided to the Mangit rulers.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Vafo Karmanagiy, "Tuhfat ul-xoniy", Buxoro, mang'it, manba, nusxa.

**Ключевые слова:** Мухаммад Вафа Карминаги, «Тухфат аль-Хани», Бухара, мангит, источник, копия.

**Key words:** Muhammad Vafa Karmanagi, "Tuhfat ul-khani", Bukhara, mangit, source, copy.

**KIRISH**

O'zbek davlatchiligi tarixining ajralmas qismi bo'lgan mang'itlar sulolasi (1756 – 1920) davriga oid manbalar soni va turi keng qamrovlidir. Bu davrning yozma manbalari va ularning mualliflari haqida so'z ketganda, tadqiqotchilar e'tiborida eng avvalo Muhammad Sharif, Muhammad Yoqub Donyolbiy, Mirzo Sodiq Munshiy, Humuliy, Mirza Abduazim Somiy singari tarixchilar gavdalanadilar. Biroq, Muhammadvafo Karmanagiy nomi ko'pchilik uchun hatto tanish ham emas. U haqida eshitganlar esa, o'z zamonasining yirik qalam egalaridan biri sanalmish ushbu tarixchining "Tuhfat al-xoniy" asari to'g'risida juda kam biladilar yoki ma'lumotga ega emaslar. Vaholanki, mazkur asar yuqoridagi keltirib o'tilgan asarlardan nisbatan qadimiysi bo'lib, XVIII asr Buxoro xonligida kechgan siyosiy jarayonlarni yoritib beruvchi muqobili bo'lmagan birlamchi manbalar qatorida o'rin egallaydi. Holbuki, aynan unda 1721 – 1780 yillarda o'zbek davlatchiligida yuz bergan muhim siyosiy voqealar – mang'itlar-ashtarxoniylar hamda mang'itlar-afshoriylar o'rtasidagi munosabatlar, siyosiy jarayonlar keng qamrovli asosda yoritilgan bo'lib, muallifning o'zi ularning qatnashchisi va jonli guvohi bo'lgan. Shu munosabat bilan birinchi galda asar muallifi shaxsiga qiziqish uyg'onishi tabiiydir.

## TARIX

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

A.A.Semenov, A.M.Mirzoev, A.M.Boldirev, N.D.Mikluxo-Maklay, Bo'riboy Ahmedovlar, "Tuhfat al-xoniy" ikki muallif tomonidan yozilgan deb ko'rsatadilar. Chunonchi, asarning 1722 – 1769-yillardagi voqealarni qamrab olgan eng katta va asosiy bo'lagi Muhammadvafo Karmanagiy, 1782-yilgacha bo'lgan bo'lagi esa Olimbek ibn Niyozqulibek eshon tomonidan bitilgan[1: 11-12]. Muhammadvafo Karmanagiy asarni dastlabki mang'it hukmdorlaridan bo'lgan Muhammad Rahimxon topshirig'i asosida yozgan. Buni asarning "Tuhfat al-xoniy" nomi bilan bir qatorda shuhrat topgan "Tarixi Rahimxoniy" nomidan ham bilish mumkin.

Asarning dastlabki mang'it hukmdori Muhammad Rahimxon topshirig'iga ko'ra yozilgani uning xon e'tiborida bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Fikrimizcha, "Tuhfat al-xoniy"ning hukmdor ko'rsatmasiga binoan yuzaga kelishiga, Muhammad Rahimxonning otasi Muhammad Hakimbiy homiyligida yozilgan "Mazhar al-ahvol" asari turtki bo'lgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, Muhammad Rahimxon ham otasi kabi o'zining hukmronlik davriga bag'ishlangan mufassal asar yaratish to'g'risida Muhammad Vafo Karmanagiyga ko'rsatma bergan. Asar matnidan ma'lum bo'ladiki, mufassal asar yaratishdan maqsad Eron bosqini natijasida ashtarxoniyalardan hokimiyatni tortib olib, yangi sulola hukmronligini boshlagan mang'it hukmdorlari hokimiyatining qonuniy asoslarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakillaridan biri hisoblangan Muhammad Vafo Karmanagiy haqidagi ma'lumotlar o'z bo'lib, asosan shu yozma yodgorlikning o'zida keltirilgan. Ular asosida B.A. Ahmedov, J.M. Tulibaeva, Anke fon Kyugelgen, Mansur Sefat Gul, J. Cho'rizoda hamda Nurillo G'iyosov kabi olimlar muallif va asar haqida bir qadar fikrlar bildirishgan.

Tarixchining oti xususida olimlarning fikri yakdil bo'lib, ularda muallif ismi "Muhammad Vafo Karmanagiy" shaklida kelgan[2: 77]. Buni asar muqaddimasida muallif o'z ismini shu shaklda keltirgani bilan asoslagan holda[3: 3], biz ham keyingi o'rinlarda tarixchini Muhammad Vafo Karmanagiy shaklida qayd etdik.

Biroq, muallif ismiga qo'shilgan taxallus, unvonlar borasida esa asar nusxalarida turli farqlar mavjud. Ularda muallif "Oxund Mulla Mir Vafo Karmanagiy"[4: 3], "Muhammad Vafo ibn Muhammad Zohir Karmanagiy Qozi Vafo"[5: 393] kabi ko'rinishlarda kelishi bunga misol bo'ladi.

Bu borada Anke fon Kyugelgen "Tuhfat al-xoniy"ning Sankt-Peterburg hamda Toshkent qo'lyozmalari asosida muallif nomida qo'llangan "qozi" mansabiga ishora qilib muallifni "Qozi Muhammad Vafo Karmanagiy" shaklida qayd etadi[6: 110]. Biroq, eronlik tadqiqotchi Mansur Sefat Gul esa Qozon nusxasidagi S.301 sonli qo'lyozmada muallif nomi "Oxund mulla mir Vafo Karmanagiy" tarzida kelganiga diqqatni tortib, nusxa ko'chiruvchisi asar yakunida muallifni quyidagi tarzda: "Bu asar muallifi Qozi vafo ibn Qozi Zohir Karmanagiy" deya qayd etganiga urg'u beradi[7: 12]. Shu o'rinda Toshkent nusxalarining 4263, 5062 sonli qo'lyozmalarida ham muallif nomi Qozon nusxasi kabi "Oxund mulla mir Vafo Karmanagiy"[8: 3] shaklida qayd etilganini urg'ulash lozim.

Ushbu qo'lyozmalarda "Tuhfat al-xoniy"ning boshqa nusxalarida uchramaydigan "mir" jumlasini keltirilgan bo'lsa-da, mazkur jumlaning nima uchun qo'llangani to'g'risida biron-bir ishora yo'q. Ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat o'zining "Abulfayzxon" dramasida bizning muallifni "Mir Vafo" shaklida qayd etib, hukmdor saroyidagi faoliyatidan xabar berishiga ko'ra, tarixchida kelgan bu jumla fikrimizcha, "Mirzo" so'zining qisqartmasi bo'lib, mang'itlar saroyidagi asl faoliyatidan darak yoki sayyidlar nasabidan bo'lganligi haqida ishora bo'lishi mumkin. Lekin, ta'kidlash kerakki, hech bir nusxada sayyidlar nasabidan ekanligi to'g'risida ma'lumotlar yo'q.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti xazinasidagi nusxasida muallif nomining to'liq, ya'ni "Ohund mullo Muhammad Vafo ibn Muhammadzohir Karmanagiy Qozi Vafo"[9: 176] shaklida kelishi muallifning shaxsiy hayoti, oilasi, kasb-kori borasida arziqli xulosa chiqarish imkonini beradi. Demak, yuqorida kelgan ma'lumotlarga ko'ra tarixchining otasi Muhammadzohir Karmanagiy bo'lib, muallif tug'ilib o'sgan joy esa Buxoroning Karmana bekligi bo'lgan. Ota va o'g'il ismidagi kelgan "Qozi" mansabi esa Muhammad Vafo Karmanagiyni qozilar avlodidan ekanligiga ishora bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, asarda Muhammad Vafo Karmanagiy qozilik mansabi bilan shug'ullanganiga ishora qilmay, balki o'z ijodidan she'rlar keltirgani[10: 359], Muhammad Rahimxon saroyida faoliyat olib borgani, uning zimmasiga davr voqealarini solnoma tarzida yozib borish vazifasi yuklatilganligi to'g'risida ishoralar keltiradi xolos[11: 22].

Ayrim manba va adabiyotlarda Muhammad Vafo Karmanagiyning 1685 yilda tug'ilganligi to'g'risida ma'lumotlar qayd etilgan bo'lsa-da[12: 237], biroq, asar nusxalarida kelgan turli eslatmalarda bu to'g'risida ayrim qarama-qarshiliklar mavjud. Chunonchi, asarning 5359 sonli qo'lyozmasida nusxa ko'chiruvchisi muallifni hijriy 1183 yili (1770) vafot etgan vaqtda 87 yoshda[13: 139] bo'lganligini qayd etishi, muallif tug'ilgan sana 1683 yil ekanligi to'g'risida xulosa qilish imkonini beradi. Mazkur ma'lumotga tayangan holda muallifni 1683 yilda, nisbasi (Karmanagiyy) hamda kunyasiga qaraganda Buxoroning Karmana bekligidan bo'lgan qozi Muhammadzohir Karmanagiyy oilasida tug'ilgan deyish o'rinlidir.

Otasining ham qozi mansabida faoliyat olib borgani, fikrimizcha, Muhammad Vafo Karmanagiyyga o'z davriga yarasha ta'lim olish imkoniyatini ham bergan. Bu to'g'risida asar nusxalarida qo'llangan "Oxund", "Mulla" kabi jumlar muallifni o'z davrining bilimli kishilaridan bo'lganligini ko'rsatadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Muhammad Vafo Karmanagiyy madrasa ta'limini olgan, fors tilidagi Turon adabiyotini mukammal o'rganib, arab tilida so'zlasha olgan hamda fors tilida she'rlar bitgan davlat arbobi bo'lgan.

Xususan, "X Tuhfat al-xoniy"da o'rin olgan "Qur'on" oyatlari, hadislardan keltirilgan ibratli hikoyalar, shuningdek, voqealar bayonini sharhlovchi she'rlar, ikkilik, to'rtlik baytlar, masnaviy kabi she'riy matnlar muallifning mazkur sohadagi faoliyatidan darak beradi. Bu borada muallif asar matnida o'z ijodidan she'rlar keltirib, ularda "Shuhrat" taxallusini qo'llagani to'g'risida bir necha ma'lumotlar mavjud. Chunonchi, muallif qaydlariga ko'ra Muhammad Rahimxonning raqiblari ustidan qozongan g'alabasi haqidagi hikoyasida Muhammad Vafo Karmanagiyy quyidagi baytni keltirib, unda "Shuhrat" taxallusini qo'llagan[14: 359]:

صبح تا شام این دعا ورد زبان شهرت است آدمی یک عمر اگر دارد تو را صد بار باد.

She'rning so'nggi baytiga qaraganda, tarixchining "Shuhrat" taxallusi bilan tanilganiga shubha yo'q. Bundan ko'rinadiki, mang'itlar saroyidagi faoliyatidan tashqari Muhammad Vafo Karmanagiyy o'z davrida Buxoro xonligining madaniy muhitida ijod qilgan adabiyot vakillaridan biri ham bo'lgan.

#### NATIJA VA MUHOKAMALAR

Manba va adabiyotlarda Muhammad Vafo Karmanagiyning kitobdorlik bilan bog'liq faoliyati to'g'risida fikrlar bahsli bo'lib, bu xususida Bo'riboy Ahmedov Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asariga tayanib bizning muallifni ashtarxoniy Ubaydullaxon saroyida kitobdorlik vazifasini bajargan Mulla Vafo bilan bir shaxs deb hisoblasa[15: 114], germaniyalik tadqiqotchi Anke fon Kyugelgen Ubaydullaxon saroyidagi kitobdorlik vazifasida bo'lgan shaxs Muhammad Vafo Karmanagiyy ekanligiga shubha bildiradi[16: 110]. Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutidagi 2731 sonli qo'lyozmada bizning muallifni Mulla Vafo kitobdor shaklida tilga olinishi mazkur masalaga bir oz oydinlik kiritish barobarida, Bo'riboy Ahmedov xulosasi asosli ekanini ko'rsatadi. Xususan, mazkur qo'lyozmada kelgan tarixiy qasida Mulla Vafo kitobdor ko'rsatmasiga binoan Mulla Xoja G'oyur tomonidan bitilib, 1732 yilda Kesh viloyati hokimi Muhammad Rahimbiy otaliqqa taqdim qilinishi[17: 230-231] Muhammad Vafo Karmanagiyning mazkur sohadagi kitobdorlik faoliyatidan darak beradi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Muhammad Vafo Karmanagiyy mang'it hukmdorlari bilan yaqin aloqada bo'lib, ularning hurmat-e'tiborida bo'lgan. Bu xususida muallif o'zining "shuhrati osmonlarga yetgan, dunyo hukmdorining xizmatida ekanligini", shuning uchun "haqir peshonani ushbu saodatli saroyga egib, ularning iqtidori va layoqati haqida bir necha o'jizona fikr bilan yozganlarim (ularning) yuksak nazarlariga manzur kelib, boshlangan ishni tugatishga amr olgani"[18: 22] xabarini hamda Doniyolbiy otaliqning shaxsan o'zi unga hukmronlik davridagi voqea va hodisalarni "Tuhfat al-xoniy"ga kiritish to'g'risida topshiriq berganini keltiradi[19: 447].

#### XULOSA

Mazkur ma'lumotlar oz bo'lsa-da, muallif haqida ikki xulosa chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, Muhammad Vafo Karmanagiyy keng ma'lumotli, puxta ilm va tajribaga ega bo'lib, Muhammad Rahimxon saroyi xizmatchisi sifatida saroy va mamlakatda yuz berayotgan voqealardan yaxshigina xabardor bo'lgan. Ikkinchidan, uning Buxoro amirlariga qilgan xizmatlari Muhammad Rahimxon o'limidan so'ng ham o'zgarmay, Doniyolbiy otaliq ko'rsatmasiga binoan "Tuhfat al-xoniy"ning 1759 – 1769 yillardagi tarixini yaratish vazifasi Muhammad Vafo Karmanagiyyga topshirilgan.

## TARIX

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muhammadvafoi Karminagiĭ. Tūhfāt ul-xonĭ. Muqaddima, tahiyaĭ matn, nusxabadal, ta'liqot va fexristhoi Jamshed Cho'razoda va Nurullo G'iyosov. Xo'chand. 2017. Bargai 11 – 12.
2. A.A. Semenov. Sobranie vostochnyx rukopisey Akademii nauk Uzbekiskoy SSS. Tom I. 1960. S. 77.
3. Muhammadvafo Karminagiĭ. Tuhfat al-xoniy. AQF. Qo'lyozma sanog'i 16. 3a-bet.
4. Tuhfat al-xoniy. AQF. Qo'lyozma sanog'i 4263. 3b-bet
5. Tuhfat al-xoniy. AQF. Qo'lyozma sanog'i 5359. 393b-bet.
6. Anke fon Kyugelgen. Legitimatsiya Sredneziatskoy dinastii mangitov v proizvedeniyax ix istorikov (XVIII – XIX vv.). Almaty. 2004. S. 110.
7. محمد قاضى وفا كرمينگى. تحفة الجانى يا تريخ رخيحانى. منصور صفت گل. دانشگاه تهران. ص. ۰۲.
8. Tuhfat al-xoniy. AQF. Qo'lyozma sanog'i 4263. 3b-bet.
9. Sobranie vostochnyx rukopisey Akademii nauk Respubliki Uzbekistan (SVR). Istoriya. Tashkent. 1998. S. 176.
10. محمد قاضى وفا كرمينگى. تحفة الجانى يا تريخ رخيحانى. منصور صفت گل. دانشگاه تهران. ص. ۳۵۶.
11. Muhammadvafoi Karminagiĭ. Tūhfāt ul-xonĭ. Muqaddima, tahiyaĭ matn, nusxabadal, ta'liqot va fexristhoi Jamshed Cho'razoda va Nurullo G'iyosov. Xo'chand. 2017. Bargai 22.
12. B.Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent. 2001. 237-bet.
13. Tuhfat al-xoniy. AQF. Qo'lyozma sanog'i 5359. 393b-bet.
14. محمد قاضى وفا كرمينگى. تحفة الجانى يا تريخ رخيحانى. منصور صفت گل. دانشگاه تهران. ص. ۳۵۶.
15. B.A.Ahmedov. Istoriko-geograficheskaya literatura Srednei Azii XVI-XVIII vv. Tashkent. 1985. S. 114.
16. Anke fon Kyugelgen. Legitimatsiya Sredneziatskoy dinastii mangitov v proizvedeniyax ix istorikov (XVIII – XIX vv.). Almaty. 2004. C. 110.
17. AQF. Qo'lyozma sanog'i 2731/2. 230a – 231b-betlar.
18. محمد قاضى وفا كرمينگى. تحفة الجانى يا تريخ رخيحانى. منصور صفت گل. دانشگاه تهران. ص. ۴۵.
19. Muhammadvafoi Karminagiĭ. Tūhfāt ul-xonĭ. Muqaddima, tahiyaĭ matn, nusxabadal, ta'liqot va fexristhoi Jamshed Cho'razoda va Nurullo G'iyosov. Xo'chand. 2017. Bargai 22.